

Date: 25th April-2025

**O‘ZBEKISTONDA OTA-ONA QARAMOG‘ISIZ QOLGAN BOLALARNING
IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**

G‘ulom Xolmurodov

O‘zbekiston Milliy Universiteti o‘qituvchisi

Alimova Charos

O‘zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarning ijtimoiy himoya tizimining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari hamda mamlakatimizda yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni muhofaza qilish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek mamlakatimizda ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga ijtimoiy ko‘mak berish masalalari atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: patronat, vasiylik va homiylik, farzandlikka olish, SOS, “Mehr daftari” mehribonlik uylari, bolalar shaharchasi, go‘daklar uyi, foster oila, homiylik, tutingan oila, patronat oila, globallashuv, yetimlik, ijtimoiy yetimlik, ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar.

Har qanday jamiyatning barqaror taraqqiyoti, avvalo, uning kelajagi bo‘lgan bolalarning huquqlari va manfaatlari qay darajada ta‘minlanganiga bog‘liq. Ayniqsa, ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillarining e‘tibordan chetda qolmasligi, davlat va jamiyat tomonidan to‘laonli qo‘llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday bolalar nafaqat moddiy, balki ma‘naviy va ruhiy jihatdan ham alohida g‘amxo‘rlikni talab qiladi.

O‘zbekistonda ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu borada yillar davomida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oila institutini mustahkamlash, vasiylik va homiylik tizimini rivojlantirish, mehribonlik uylari o‘rniga oilaviy muqobil xizmatlarni kengaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish kabi chora-tadbirlar bu sohaning asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashga qaratilgan davlat siyosati keng qamrovli va huquqiy asosga ega. Bu boradagi normativ-huquqiy baza bolalarning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, ularning jamiyatda to‘laonli shaxs sifatida shakllanishini ta‘minlashga qaratilgan.

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalashga oid quyidagi milliy darajadagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ularga 2023 yil 30-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi¹, O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi², O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi qonuni³, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy bolalar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O‘zbekiston nashriyoti. 2023. B-80.

² O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. – Toshkent.: Adolat. 2023.

³ O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi O‘RQ-364-son qonuni. 02.01.2014



Date: 25th April-2025



uyllari faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oilaviy bolalar uylari to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqidagi qarori⁴, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori⁵, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, shular jumlasidandir.

Ushbu me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bolalarning ijtimoiy, psixologik, ma‘naviy va huquqiy ehtiyojlarini kompleks tarzda qamrab oladi hamda ularni jamiyatda to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalari alohida e‘tibor markazida turibdi. Bu boradagi yondashuvlar nafaqat milliy an‘ana va qadriyatlar, balki jahon hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilgan inson huquqlari va ijtimoiy himoya tamoyillariga hamohang tarzda shakllanmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida bu masalaga huquqiy asoslar yanada kuchaytirildi. XIV bob 76-moddasida “Oila-jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”. Bu esa davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ijtimoiy adolat, barqarorlik va kelajak avlod tarbiyasiga bo‘lgan mas‘uliyatni chuqurlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasida yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish bo‘yicha tizimli va huquqiy asoslangan yondashuv mavjud. Bu yondashuv bolalarning manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘ygan holda, ularni mehr-muhabbatli, xavfsiz muhitda tarbiyalanishini ta‘minlashga qaratilgan.

O‘zbekistonda amalda bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilalarga joylashtirish shakllari:

1-shakli, O‘zbekiston Respublikasida ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish va ularni jamiyatga moslashtirish tizimida muhim o‘rin egallovchi shakllardan biri bu patronat hisoblanadi.

Patronat – bu bolaning huquq va manfaatlarini hisobga olgan holda, ularni vaqtincha yoki doimiy ravishda fuqarolarning oilalariga joylashtirish orqali tarbiyalash shaklidir. Ushbu jarayon vasiylik va homiylik funksiyalarini bajaruvchi organ bilan

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy bolalar uylari faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-345-son qarori. 04.08.2022

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 26-son qarori. 17.01.2022.

Date: 25th April-2025

bolaning tarbiyasini o'z zimmasiga olish istagini bildirgan shaxs o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Patronat tarbiyachi – bu voyaga yetgan, muomalaga layoqatli, vasiylik va homiylik organi bilan tuzilgan shartnoma asosida bolaning tarbiyasini amalga oshiruvchi, uning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsdir. Patronat tarbiyachilari bolaning rivojlanishiga qulay ijtimoiy va ma'naviy muhit yaratish, uni hayotga tayyorlash, ta'lim olishiga ko'maklashish kabi majburiyatlarni zimmasiga oladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning quyidagi asosiy shakllari mavjud:

Farzandlikka olish (asrab olish) – bolaning yangi oilaga qonuniy tarzda qabul qilinishi;

Vasiylik yoki homiylik – bolaning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxsga topshirilishi;

Tutingan oilaga tarbiyaga olish (patronat) – shartnoma asosida bola tarbiyasini oilada amalga oshirish shakli.

Mazkur shakllarning har biri bolaning psixologik, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishi uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, patronat shaklining rivojlantirilishi yetim va qarovsiz qolgan bolalarning oilaviy muhitsiz ulg'ayishining oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Patronat (tutingan) oila qanday tashkil etiladi?

Tutungan oiladagi bolalarning umumiy soni, o'z bolalari va tarbiyalash (patronat)ga olingan bolalar bilan birgalikda qoidaga ko'ra, 8 nafardan oshmasligi kerak.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish ixtiyoriy bo'lib, u xalq ta'limi bo'limlari qoshidagi vasiylik va homiylik organlari bilan bolani olish istagini bildirgan shaxslar o'rtasida tuzilgan kelishuv (bitim) asosida amalga oshiriladi.

Bolani (bolalarni) oilasiga tarbiyalash (patronat)ga olishni xohlovchi har ikki jinsdagi voyaga yetgan shaxslar o'z yashash joyidagi vasiylik va homiylik organiga tutingan ota-onalar sifatida hisobga qo'yish to'g'risidagi iltimos bildirilgan arizani beradilar.

Arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

- nikoh to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi (agar nikohda bo'lsa);
- ish joyidan ish haqi ko'rsatilgan ma'lumotnoma;
- sog'lig'i to'g'risida tibbiy-maslahat komissiyasining xulosasi, psixiatriya va narkologiya muassasalari, teri-tanosil kasalliklari dispanserining ma'lumotnomalari;
- sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq bo'lgan mulk huquqidagi, ijara (ijaraga olish) shartlaridagi yoki boshqa asoslardagi uy-joy mavjudligini tasdiqlaydigan hujjat;
- mehribonlik uylari qoshida tashkil etilgan "Tutingan ota-onalarni tayyorlash o'quv kursi"da o'qiganligi to'g'risidagi sertifikat.

Ariza berishda shaxsni tasdiqlaydigan hujjat ko'rsatiladi.

Vasiylik va homiylik organi ariza berilgan kundan boshlab 30 ish kuni mobaynida oilaning turmush sharoitlarini, bolalarni tarbiyaga olishni istaganlarning moddiy



Date: 25th April-2025

ta'minlanganlik holatini tekshiradi, tekshirish dalolatnomasini tuzadi va tekshirish dalolatnomasi asosida ularni hisobga qo'yadi.

Tutingan ota-onalarni tanlash vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Vasiylik va homiylik organi tutingan ota-onalar bilan kelishuv tuzilishigacha bolani tarbiyaga olayotgan oilaning turmush sharoitlarini o'rganib chiqishi va ushbu oila a'zolari sog'lig'ining ahvoli haqida ma'lumotlar to'plashi shart.

Hisobga qo'yish rad etilgan taqdirda ariza beruvchiga barcha hujjatlar qaytariladi va qaror yuzasidan shikoyat qilish tartibi tushuntiriladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tartibda hisobda turgan shaxs vasiylik va homiylik organlarida hisobda turgan va ota-onalar qarovisiz qolgan, shu jumladan, tarbiyalash va davolash muassasalaridagi, shuningdek, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalaridagi voyaga yetmagan bolalarning dastlabki tanlab olinishini amalga oshirishi mumkin bo'ladi.

2-shakl, vasiylik - o'n to'rt yoshga to'lmagan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. 3-shakl, homiylik - o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli ⁶.

Xalqaro ijtimoiy ish amaliyotida ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni joylashtirishning quyidagi asosiy shakllari mavjud bo'lib, ular uch asosiy guruhga bo'linadi:

1. Bolalarni joylashtirishning oilaviy shakllari

Bu shakllar bolaning to'laqonli oila muhiti, shaxsiy e'tibor va mehrga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Farzandlikka olish – bola yangi oilaning to'liq a'zosi sifatida qonuniy huquq va majburiyatlar bilan qabul qilinadi.

Vasiylik yoki homiylik – bola yaqin qarindoshlar yoki ishonchli shaxslarga topshiriladi, ular bolaning huquq va manfaatlarini himoya qiladi.

2. Davlat-jamoat va muqobil oilaviy shakllar

Bu shakllar oilaviy sharoit yaratish bilan birga, jamoat yoki nodavlat tashkilotlari ishtirokida amalga oshiriladi:

Oilaviy bolalar uylari (tutingan oila) – bir nechta bola bir oilada tarbiyalanadi, u yerda "tarbiyachi ota-ona" faoliyat yuritadi.

SOS – bolalar mahallalari – xalqaro model asosida tashkil etilgan mustaqil uylar majmuasi bo'lib, har bir uyda bir "ona" bolalarga g'amxo'rlik qiladi.

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi O'RQ-364-son qonuni. 02.01.2014.



Date: 25th April-2025

Vaqtinchalik tutingan oila – ota-onasi vaqtinchalik bola parvarishidan chetlashtirilgan hollarda qo'llaniladi.

Foster oila – ixtisoslashgan tarbiyalovchi oilalar tizimi bo'lib, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan oilalarga bolalar vaqtinchalik topshiriladi.

Patronat oila – bolaning tarbiyasi shartnoma asosida amalga oshiriladi, tarbiyachi davlat yoki jamoat organlari bilan bevosita hamkorlikda ishlaydi.

3. Bolalarni davlat muassasalariga joylashtirish shakllari

Bu shakllar bola uchun zarur bo'lgan parvarish, tibbiy xizmat va ta'limni ta'minlovchi davlat tomonidan boshqariladigan muassasalarda amalga oshiriladi:

Go'daklar uylari – odatda 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan.

Bolalar uylari (Mehribonlik uylari) – turli yoshdagi bolalar uchun yashash va ta'lim olish joyi sifatida xizmat qiladi.

Internat-maktablar – yetim yoki qarovsiz bolalar uchun ta'lim bilan birga yashash imkoniyatini beruvchi muassasalar.

Bolalarni vaqtinchalik parvarish qilish markazlari – favqulodda vaziyatda bola joylashtiriladigan, qisqa muddatli parvarish ko'rsatuvchi markazlar.

Butasnif bola manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish prinsipiga asoslangan bo'lib, zamonaviy ijtimoiy ishda individual yondashuv, ijtimoiy moslashuv va oilaviy ijtimoiylashuvni ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekistonda 2019-2023-yillarda Mehribonlik uylarini (bolalar uylarini) noinstitutsiyalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 11-fevraldagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyasini kuchaytirish to'g'risida"gi farmoni bilan nazarda tutilgan.

Farmonda bolalarni joylashtirishning oilaviy va boshqa muqobil shakllarini keng joriy etish, ayniqsa ularni tarbiyalash (homiylilik) uchun oilaga qabul qilish, shuningdek, bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish zarurligi qayd etilgan.

2019-yil 1-martdan boshlab homiylik ostiga olingan (homiylilik ostidagi) har bir bolaga to'lanadigan nafaqa miqdori 1,33 baravar oshirilib, 820 ming so'mni tashkil etdi, keyinchalik inflyatsiya darajasidan past bo'lmazligi qayd qilib qo'yildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5215-son qarori- qabul qilindi⁷.

Mazkur qarorga ko'ra, "Mehribonlik" uylari, Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari va Sog'liqni saqlash vazirligi tizimining Bolalar uylari (o'quv-tarbiya muassasalari) Milliy gvardiyaga birlashtirildi.

⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5215-son qarori. 09.08.2021.



Date: 25th April-2025

Milliy gvardiya tarkibida o'quv-tarbiya muassasalarida yoshlarning ta'lim va tarbiya olish jarayonlarini hamda ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil etishga mas'ul Milliy gvardiya qo'mondonining o'rinbosari lavozimi joriy etildi.

Shuningdek, oilaviy bolalar uylari va bolalar uylariga hamda vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalarga (25 yoshga to'lmagan) Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchi va xodimlari biriktiriladi.

Milliy gvardiyaga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatildi:

-o'quv-tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilarini ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga qaytarish, vasiy yoki homiy tayinlash, farzandlikka berish va joylashtirishning boshqa shakllarini qo'llash choralari ko'rish;

-yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash;

-o'quv-tarbiya muassasalarida sifatli ta'lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishga, ularning maishiy shart-sharoitlari yaxshilanishiga, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish;

-yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish;

-zamonaviy usul va shakllardan foydalangan holda jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va dunyoqarashi keng yoshlarni shakllantirish, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni sport turlariga qiziqtirish va jalb etish vazifa sifatida yuklatildi.

Biriktirilgan harbiy xizmatchi va xodimlar yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiya olish ahvolini va maishiy shart-sharoitlarini o'rganadi.

O'quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilari o'rtasida ular tomonidan erishilgan natijalarni baholash orqali o'quv-tarbiya muassasalarining reyting tizimi joriy qilinadi.

2021-yil 1-noyabrdan "Mehr daftari"ga kiritilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari tashkil etildi.

"Mehr daftari" tizimi – yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning muammolarini o'rganish hamda hal etish, ularning orzu-istaklarini ro'yobga chiqarishga hamda jamiyatga ijtimoiylashuviga ko'maklashish, ularni vasiylikka olgan oilalarni rag'batlantirish, shuningdek bolalarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lish sabablarini har tomonlama o'rganish hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etish va ularning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan tizim .

"Mehr daftari" - yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning muammolarini o'rganish hamda hal etish, ularning orzu-istaklarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish maqsadida ular haqidagi ma'lumotlarni kiritish, idoralararo ma'lumotlar almashishni tashkil etish hamda "Mehr daftari" tizimi bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning samaradorligini monitoring qilish imkonini beruvchi elektron platforma.



Date: 25th April-2025

O'quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan, vasiylikka, homiylikka va oilaga tarbiyaga olingan (patronat) qizlarning ijtimoiy holati har yili kamida ikki marotaba o'rganib boriladi.

Shunga ko'ra, bu qizlar "Mehr daftari"ga kiritilib, ularni qiynayotgan masalalarni joyida hal qilishga hamda o'quv-tarbiya muassasalaridan keyingi hayotida o'z o'rini topishiga ko'maklashiladi.

Shuningdek, har yili 25 nafar o'quv-tarbiya muassasalari tarbiyachilari O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi sanatoriylarda bepul davolanadi. Shu kabi bir qator masalalar masalalarga yangiliklar kiritilmoqda.

Daftarga kiritilgan bolalarning muammo (ehtijoj, qiziqish)lari tegishli tartibda o'rganiladi.

2021-yilda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash maqsadida, yetim bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim-tarbiyasi, bandligi, uy-joy bilan ta'minlanishi kabi masalalarga bag'ishlangan videomajlis yig'ilishi o'tkazildi. Unda mavjud holat chuqur tahlil qilinib, ushbu yo'nalishdagi ishlarda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab beruvchi aniq vazifalar belgilab olindi.

Yig'ilishda berilgan topshiriqlarga muvofiq, 2021-yil 1-sentyabrdan boshlab:

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun nafaqa miqdori oiladagi bolalar sonidan kelib chiqib belgilanadigan tizim joriy qilindi;

Bolalar yoshi 14 dan 18 yoshgacha bo'lganlar uchun nafaqani to'lash muddati ilgari 6 oy etib belgilangan bo'lsa, endilikda 12 oygacha uzaytirildi, bu esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi;

"Temir daftar"ga kiritilgan oilalar, boquvchisini yo'qotgan va nogironligi bo'lgan bolalar uchun maktabga tayyorlanish maqsadida 500 ming so'm miqdorida moddiy yordam ajratilishi ko'zda tutilgan.

Ushbu chora-tadbirlar mamlakatimizda bolalarga bo'lgan e'tibor yuksak darajada ekanini yaqqol namoyon etadi. Xususan, yetim bolalar qalbida ertangi kunga bo'lgan ishonchni, oilalarda esa umid va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

O'zbekistonda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning ijtimoiy himoyasini takomillashtirish muhim masala bo'lib, bu borada huquqiy asoslarni mustahkamlash, ta'lim va tarbiya imkoniyatlarini kengaytirish, psixologik yordam tizimini rivojlantirish va jamiyatning faol ishtirokini ta'minlash zarur. Ushbu masalani hal etish davlat va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab etadi. Tizimni yanada takomillashtirish orqali bunday bolalarga munosib kelajak yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O'zbekiston nashriyoti. 2023. B-80.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. – Toshkent.: Adolat. 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy bolalar uylari faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-345-son qarori. 04.08.2022.



Date: 25th April-2025

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-son qarori. 09.08.2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oilaviy bolalar uylari to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqidagi 451-son qarori. 16.08.2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida”gi 171-sonli qaroriga 3-Ilova. 12.04.1999.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 26-son qarori. 17.01.2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 656-son qarori. 25.10.2021.

